

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)



1-keys. “1991-yil — O‘zbekiston tarixida yangi davr”



Vaziyat:

Jahongir va uning guruhdoshlari tarix darsida “1991-yilgacha bo‘lgan davr va mustaqillikdan keyingi taraqqiyot” mavzusida taqdimot tayyorlash vazifasini olishdi. Ular iqtisodiy, siyosiy va madaniy erkinliklarni taqqoslashga qaror qilishdi.



Savollar:

- 1 1991-yilda erishilgan mustaqillik O‘zbekistonga qanday iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarni berdi?
- 2 O‘z muta qil yo‘limizga ega bo‘lishimiz madaniy hayotimizga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
- 3 Tarixiy sanalarni bilish va tahlil qilish o‘smirlar uchun nega zarur?
- 4

Qiziqarli topshiriq:

1991-yil 31-avgust va 1-sentyabr voqealarini aks ettiruvchi qisqa vaqt chizig‘i (Timeline) tayyorlang.



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)



2-keys. “Tinchlikni asrash va mas’uliyat”



Vaziyat:

Shahnoza maktabdagi davra suhbatida: “Mustaqillikni qo‘lga kiritish qanchalik muhim bo‘lsa, uni asrab-avaylash va mustahkamlash undan-da mas’uliyatli vazifadir”, – deb ta’kidladi.



Savollar:

- 1 Mustaqillikni saqlash va mustahkamlashda fuqarolar va yoshlarning o‘rni nimadan iborat?
- 2 Zamonaviy dunyoda bilimli va kasb-hunarli bo‘lish Vatan mustaqilligiga qanday hissa qo‘shadi?
- 3 “Daxldorlik tuyg‘usi” deganda nimalarni tushunasiz?
- 4 _____

Qiziqarli topshiriq:

“Vatanim taraqqiyotiga mening hissam” mavzusida 5 ta ustuvor shaxsiy maqsadingizni yozing.

